# Saida Zunnunova hayoti va ijodi



Fan- O‘zbek tili

O‘qituvchi- Kamaliddinova Nigora Sirajiddinovna

# REJA:

1. Saida Zunnunova haqida
2. Saida Zunnunova asarlari
3. “Qizimga” she’ri
4. Matn yuzasidan savollar

*«Saidaning birinchi kitobini o‘qib «Qizingiz yozdi» deb nom qo‘yib berganman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiqlarimizni yozib, mehnatga rag‘batimizni toblantiradigan, idrokimizni go‘zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo‘lib yetishdi».*

G‘afur G‘ulom






Saida Zunnunova 1926-yil 15-fevralda Andijon shahrida tug‘ilgan. U shahardagi 30-maktabni tugatgach, Andijon davlat o‘qituvchilar institutida o‘qidi. So‘ngra ToshDU (hozirgi O‘zMU)ning filologiya fakultetida ta’lim oldi. Shoira Andijon maktablarida muallima, jurnal va gazeta muharririyatlarida, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ishladi. Saida Zunnunova Said Ahmadning rafiqasi edi. U 1977- yil 51 yoshida vafot etdi.

Asarlari: «Qizingiz yozdi», «Yangi she’rlar», «Gullar vodiysi», «Qizlarjon», «Bir yil o‘ylari» kabi to‘plamlari, «Gulbahor» hikoyalar to‘plami, «Gulxan» qissasi, «Olov», «Odamlar orasida», «Ko‘chalar charog‘on», «Direktor», «Bo‘ylaringdan o‘rgilay», «Ruh bilan suhbat» dostonlari va boshqalar.





**Qizimga**

Yer uzra qo‘ndi oqshom,
Oy shu’lasi bir mayin.
Kel, oppog‘im, kel, erkam,
Men seni allalayin.

Dudog‘ing guldan xushbo‘y,
Yuzlaring undan xushro‘y.
Kel, oppog‘im, bag‘rimga
Jajji boshginangni qo‘y.

Tovuq uxlar qo‘noqda,
Shamol tingan butoqda.
O‘t-o‘lanlar jimgina
Orom olar o‘tloqda.

Yulduz charaqlayapti,
Oy ham yaraqlayapti.
Qizcha uxladimi, deb,
Mendan so‘roqlayapti?..

Yer uzra qo‘ndi oqshom,
Oy shu’lasi bir mayin.
Kel, oppog‘im, kel,
erkam,
Men seni allalayin.

| **Lug‘at** | |
|---|---|
| **shu’la** — луч, сияние | **butoq** — сук, толстая ветвь |
| **dudoq -** книж. губа, губы | **o‘tloq** — луг |
| **xushro‘y** — красивый | **yaraqlamoq** — блестеть |

**1-topshiriq.** She’rni o’qing va quyidagi savollarga yozma ravishda javob bering.

1. Shoira qizini tabiatning qaysi xususiyatlariga o‘xshatadi?
2. Yulduz va oy kimni so‘raydi?
3. G‘afur G‘ulom shoiraga qanday ta’rif bergan?


Saida Zunnunova asarlari
«Gulxan» qissasi
«Odamlar orasida»
«Olov»
«Ruh bilan suhbat»
«Ko‘chalar charog‘on»
«Direktor»
«Bo‘ylaringdan o‘rgilay»

# Madaniyat sohasida zarur

**Muloqot**

**Iste'dod**

**Ishonch**

**?**
**(o'zingiz toping)**

1. Barqaror birikma deganda nimani tushunasiz?

2. Barqaror birikmaning qanday turlari mavjud?

3. Frazeologizm nima?

4. Maqol va matal deganda nimani tushunasiz?

5. Qanday birikmalar hikmatli so‘zlar (aforizmlar) sanaladi?


Саида Зуннунова ▪ Ўшандаям куз эди



ACADEMIC IHT LYCEUM

TIIAME






**Uy vazifasi.** O’zbek shoiralari – ayol ijodkorlari ro’yxatini tuzing.

E‘tiboringiz uchun rahmat!